

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIK TA'LIM BERISHDA KUZATISHNING AHAMIYATI

Zokirova O'g'iloy

Qo'qon universiteti Ta'lim fakulteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-24 guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20226575>

Annotatsiya: Bugungi kunda insoniyatning tabiatdan noto'g'ri foydalanishi oqibati tabiatda turli xil salbiy jarayonlarni kuzatyapmiz. Bunday holatlarning oldini olish uchun eng avvalo yosh avlodning ekologik madaniyatini oshirishimiz kerak. Uzluksiz ta'limning boshlang'ich bo'limi bu maktabgacha ta'lim muassasasi sanaladi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarda biz ekologik madaniyatni shakllantirib borishimiz lozim. Bunda eng samarali usullardan biri - bu kuzatish hisoblanadi. Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarining ekologik tarbiyasida atrof-muhitning roli hamda bolalarning ekologik madaniyatini rivojlantirishning usullari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ekologiya, tabiat, bola, shaxs, ko'nikma, bilim, biosfera, ob'yekt, ko'nikma, qobiliyat, qadriyat

Kirish

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik madaniyatni shakllantirish bolaning estetik va axloqiy tuyg'ularini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Tabiat bilan aloqa qilish zarurati bolaning ekologik madaniyatini shakllantirishning boshlang'ich nuqtasidir: bola tabiat bilan erta aloqa qilishi kerak va odatda u o'zini tabiatdan ajratmaydi va o'zini tabiatning bir qismi deb biladi. Ekologik madaniyat tamoyillarini shakllantirishda bolalar va tabiat o'rtasidagi aloqa zarurati maktabgacha ta'lim muassasasida maxsus tashkil etilgan kuzatish orqali qondirilishi mumkin. Uning mohiyati turli xil idrok etish shakllari – vizual, eshitish, sezish orqali tabiiy narsalarning hissiy bilishida yotadi. Tabiatdagi kuzatuvlarni boshqarish maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat ob'yektlarining turli xil belgilarini ajratib ko'rsatishga va eng ahamiyatli narsalarga yo'naltirishga, ular orqali o'simliklar, hayvonlarning jonsiz tabiat hodisalari bilan o'zaro bog'liqligini aniqlashga imkon beradi. Kuzatish bu mazmunli idrok natijasidir, uning davomida aqliy faoliyatning rivojlanishi sodir bo'ladi. Bir tomondan, kuzatish bilim manbai, ikkinchi tomondan, u o'zi ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilishning boshlang'ich nuqtasi sifatida ma'lum bilim va madaniyatni talab qiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida tabiatda kuzatuvlarni tashkil qilish va o'tkazishda quyidagi pozitsiyalar muhim ahamiyatga ega: tabiiy narsalarning mavjudligi, kuzatuv mazmunini aniqlash. Ob'yektga va bolalarning yoshiga qarab, kuzatuvlar bir necha daqiqaga cho'zilishi mumkin (qo'lning kaftiga qor yog'ishi, qushlarning oziqlanishi, ayozli kunlarda qor yog'ishi, quyoshli ob-havoda quyosh nuri, muzning erishi, bahorgi momaqaldiroqlar, akvariumdagi baliqlarning harakati, o'simliklarning uyg'onishi va o'sishi, daraxtlardagi kurtaklar, barglarning rangsizlanishi). Uzoq muddatli kuzatuvlar juda muhimdir, chunki ular tabiiy hodisalarning boshlanishidagi ketma-ketlikni, maktabgacha yoshdagi bolani vizual idrok eta oladigan aloqani aniqlashga imkon beradi. Turli yosh guruhlarida kuzatuv mavzulari har xil. Masalan, birinchi yosh guruhda kuzatuvlar qiziq – "derazadan tashqaridagi yomg'ir tomchilari", katta guruhda – "qushlar oshxonasi" va boshqalar.

Tabiatda kuzatuvlar o'tkazishda ekologik ta'lim jarayonida bolalarning bilimlari, ko'nikmalari va qadriyat munosabatlarini egallash o'z-o'zidan emas, balki maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyat asoslarini shakllantirishga yordam berishi muhimdir. Jamiyat

ma'naviy qadriyatlarini, shu jumladan, ekologik madaniyatni asrab-avaylash va kelajak avlodlarga yetkazishdan manfaatdor. Bolalar yerning tabiiy boyliklarini ko'paytira oladigan darajada tarbiyalanishi kerak. Bolalarga tabiat to'g'risidagi bilimlarni va turli xil ko'nikma va qobiliyatlarni egallashga rahbarlik qilib, tarbiyachi turli xil usullardan foydalanadi. Tabiatni bevosita idrok etish va faol ko'nikmalarni ta'minlaydigan usullarga ustunlik berish kerak. Ekologik madaniyatni shakllantirishning bunday usullariga kuzatish, elementar eksperimentlar, modellashtirish, o'yin va boshqalar kiradi. Shu bilan birga tarbiyachining so'zlar, hikoyalar, suhbatlar, tabiiy ob'yektlar yoki ularning rasmlarini namoyish etish bilan bog'liq asarlarni o'qish so'zlariga asoslangan usullardan keng foydalaniladi. Bundan tashqari, ekologik madaniyatni shakllantirishnin o'ziga xos usullarini ko'rib chiqishda ularning vazifalarni hal qilishga qanday hissa qo'shishi ko'rsatiladi.

Kuzatish bu tabiatni hissiy bilish usulidir. Tabiat, tirik narsalar, atrof muhit bilan bevosita aloqani ta'minlaydi. Maktabgacha ta'limda E.I. Tixiyeva, O. Yoxanson, A.A. Bystrov, P.N. Baza, E.I. Zalkindt, S.A. Veretennikova kabi olimlar tabiatni tushunishning muhim usuli sifatida kuzatishga katta ahamiyat berishgan.

Tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, uni muhofaza qilishning muhimligini tushunish, ekologik madaniyat va atrof-muhitni anglash maktabgacha yoshda shakllantirilganligi bilan izohlanadi. Shu munosabat bilan bolalarning ta'lim tashkilotlarida muhim maqsad – o'sib kelayotgan avlodning ekologik madaniyatini va ekologik ongini rivojlantirishdir. Ahmad Yugnakiy fikricha: "Hayvon tabiat ne'matlariga qanoat qiladi, insonga esa tabiat ne'matlari kamlik qiladi, u oziq-ovqat, kiyim-kechak va uy-joyga ehtiyoj sezadi. Hayvonlar tabiat ne'matlarini o'zlashtiradi, inson esa o'z mehnati bilan o'ziga ovqat, kiyim-kechak, uy-joylar yaratadi. Shu maqsadda inson dehqonchilik bilan shug'ullanishi kerak. Hayvonlar garchi poda bo'lib, yashasalar ham, yolg'iz yashay oladi, odamlar esa yakka holda o'zlari uchun barcha yashash vositalarini topa olmaydilar. Shuning uchun odamlar o'zaro yordamga muhtoj hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik madaniyatini shakllantirish jarayonida quyidagi shakl va usullar alohida ahamiyatga ega.

– Og'zaki va adabiy usullar (hikoyalar o'qish); – Bolalar o'yinlari; – Kuzatuv; – Elementar qidirish faoliyati; – Modellashtirish; – Ekologik faoliyat.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimida yangidan isloh qilish, yangi axborot texnologiyalariga asoslangan o'qitish usullarini ishlab chiqish, ularni keng joriy qilish bugunning talabidir. Shu jihatdan maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyalashda kuzatish muhim hisoblanadi. Bunda bolada tabiatga nisbatan mehr uyg'onadi. Kuzatuvning har xil turlari bolani ekologik tarbiyalash bilan birga, uning aqliy salohiyatini ham oshiradi. Yangicha ijtimoiy sharoitda ta'lim-tarbiyada ko'zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, bolalarning mashg'ulot va mashg'ulotdan tashqari xilma-xil tarbiyaviy faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, vatanparvar, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish zamon talabi. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev o'zining "Yangi O'zbekiston strategiyasi" nomli kitobida – "Bugun hayot yangicha fikrlash va ishlash, milliy "aql markazlari" mizni shakllantirishni talab etmoqda" deb alohida ta'kidlab o'tganlar.

Haqiqatdan ham biz yaratishimiz kerak bo'lgan milliy aql markazlarimizda bolalar o'rganishi kerak bo'lgan ko'nikmalarga tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash (ijodkorlik), hamkorlik, muloqot, jismoniy bilim, mantiqiy matematika va ijtimoiylashuv kabi ko'nikmalar kiradi. Bunday jarayonlar albatta bolani har tamonlama tarbiyali va tabiatga nisbatan oqilona yondahsuvga o'rgatadi.

References:

1. Rajabova, L. C., & To'xtayeva, M. H. (2021). Maktabgacha ta'lim muassasalarida tabiat burchagini tashkil qilishning ahamiyati. SCIENTIFIC PROGRESS, 1224-1229.
2. Abduqodirova S. Ilk yoshdagi bolalar bilan ishlash metodikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
3. Rajabova, L. C., & Muxtorova, M. A. Q. (2021). Maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatda oddiy tajribalarni o'tkazishga o'rgatish. 1218-1223.
4. Sh.M. Mirziyoyev. “Yangi O'zbekiston strategiyasi.” – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2021.